

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING INNOVATSION KOMPETENSIYASINI OSHIRISHNING DIAGNOSTIKASI

Jumanova Fatima Uralovna

Nizomiy nomidagi TDPU kafedra mudiri, p.f.n., dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetentligi, innovatsion kmpetensiyasini oshirish usullari, o'rta maxsus va boshlang'ich professional ta'lim tizimida pedagogik diagnostika modelini takomillashtirish bir necha o'zaro aloqador, pedagogik, psixologik va ijtimoiy jihatdan ma'lum darajada mustaqil tushunchalarning o'zaro munosabatidan tashkil topishi, diagnostik masalalar yuzasidan bir qancha fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: o'qitish sifati, pedagogika, sotsiologiya, psixologiya, kompetentsiya, muloqatchanlik, madaniyatllilik, ishchanlik, empatiya, kvalifikatsiya.

ДИАГНОСТИКА ПОВЫШЕНИЯ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Джуманова Фатима Ураловна

Заведующий кафедрой ТДПУ имени Низоми, кандидат педагогических наук, доцент.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы инновационной компетентности будущих педагогов, методы повышения инновационной компетентности, совершенствования модели педагогической диагностики в системе среднего специального и начального профессионального образования, состоящей из взаимосвязи нескольких взаимосвязанных, в некоторой степени самостоятельных в педагогическом, психологическом и социальном плане понятий, проведен ряд исследований по диагностическим вопросам.

Ключевые слова: качество обучения, педагогика, социология, психология, компетентность, коммуникабельность, культурность, трудолюбие, эмпатия, квалификация.

DIAGNOSTICS OF INCREASING INNOVATIVE COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS

Jumanova Fatima Uralovna

Head of the department of TSPU named after Nizomi, Ph.D., associate professor

Annotation: this article focuses on innovative competence of future teachers, methods of increasing innovative competency, improvement of the pedagogical diagnostic model in the system of secondary special and primary professional education, the organization of several interrelated, pedagogical, psychological and socially independent concepts from the interaction, several points on diagnostic issues.

Keywords: quality of teaching, pedagogy, sociology, psychology, competence, communicativeness, culturality, workmanship, empathy, qualification.

O'zbekistonda o'qitish sifati ta'limgardagi sohasida amalga oshirilayotgan barcha islohotlar hamda o'quv-tarbiya jarayonining pirovard natijasi sifatida doimiy nazoratdagi ustuvor vazifa hisoblanadi. Mamlakatimizda mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab ta'lim mazmunini tubdan isloh qilish, tayyorlanayotgan kadrlar sifatining pespublikada amalga oshirilayotgan chuqr iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar talablariga, shuningdek ta'lim, fan, texnika va texnologiyalar rivojlanishini ta'minlash maqsadida ilgari surilgan bosh g'oyalardan biri «Barkamol avlod -O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» sifatida qayd etilib, «Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lislari shart» degan kontseptual g'oya orqali amaliyotga joriy etilmoqda.

O'qitish sifati - ijtimoiy-pedagogik hodisa bo'lib, O'zbekiston jamiyatida ta'limning holati va natijalanganligini aniqlovchi hodisadir.

O'qitish sifatini diagnostika qilish bo'yicha tadqiqotlar kompleks xarakterga ega bo'lganligi sababli uning metodologik asoslari pedagogika, sotsiologiya, psixologiya fanlari nazariyasiga tayanadi.

O'rta maxsus va boshlang'ich professional ta'lim tizimida pedagogik diagnostika modelini takomillashtirish bir necha o'zaro aloqador, pedagogik, psixologik va ijtimoiy jihatdan ma'lum darajada mustaqil tushunchalarning o'zaro munosabatidan tashkil topadi. Ular: o'qitish sifati, diagnostika, model, modellashtirish, modelni takomillashtirish tushunchalaridir.

«Kompetentsiya» va «kompetentlik» atamalari o'zakdosh bo'lib, ular G'arb ilmiy adabiyotida XX asrning 60- yillardining oxiri, 70- yillarda paydo bo'ldi. Ilmiy tadqiqotlarda kompetentsiya pedagogik hodisa sifatida XX asrning 70 yillardan e'tiboran tadqiq etila boshlandi.

«Kompetentsiya» - muayyan muammo va masala, hodisa borasida shaxsning bilim, tajriba, mutasaddilikka ega bo'lishi va ularni hal qilishga yetadigan salohiyati tushuniladi.

«Kompetentlik»- voqeal-hodisalar, masalalar yechimi to'g'risida xabardor bo'lish, muayyan nufuzga ega bo'lishni o'zida ifoda etadi.

Ta'lim jarayonini innovatsion tashkil etishda zamonaviy o'qituvchining kompetentligini shartli ravishda quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- O'qituvchining kasbiy kompetentsiyasi

- O'qituvchining shaxsiy kompetentsiyasi
- O'qituvchining umuminsoniy, madaniy kompetentsiyasi
- O'qituvchining maxsus kompetensiyasi
- O'qituvchining kasbiy kompetentsiyasi:
 - pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega bo'lisl;
 - o'z ustida tinimsiz ishlashi;
 - ta'lim jarayonini rejalashtirish, baholash va qayta aloqani o'rnata olish;
 - o'quvchilarda motivatsiyani shakllantirish;
 - axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ni bilishi;
 - ta'lim muhitiga yangilik kiritishi;
 - o'z fanini mukammal bilishi;
 - xorijiy tillarni bilishi va boshqalar.

Kasbiy kompetentsyaning shakllanish bosqichlari:

1. O'z-o'zini tahlil qilish va zarur narsalarni anglash;
2. O'zini rivojlanadirishni rejalashtirish maqsad, vazifa belgilash;
3. O'zini namoyon etish va kamchiliklarini tuzatish.

O'qituvchining shaxsiy kompetentsiyasi:

- Muloqatchanlik;
- Bag'rikenglik;
- Yetakechilik;
- Faollik va tashabbuskorlik;
- Moslashuvchanlik;
- Sog'lom turmush tarziga amal qilish;
- Ma'suliyatlilik;
- Ishchanlik;
- Insonparvarlik.

Zamonaviy o'qituvchi ta'lim sifati va uzlusizligini ta'minlash va o'zining kasbiy darajasi va malakasini doimiy ravishda oshirib borishi, innovatsion texnologiyalardan foydalanish asosida o'quv jarayonini uzlusiz takomillashtirib borishi, kasbiy masalalarini yechishga moyil bo'lishi shart.

Ta'lim jarayonini innovatsion tashkil etishda jamiyatimiz talab etayotgan har tomonlama yetuk, komil insonni tarbiyalashda o'qituvchining o'rni beqiyosdir. Har sohada kompetent o'qituvchi bo'lisl uchun pedagogik nazariyani egallashning o'ziga yetarli emas. Pedagogik jarayon esa juda xilma - xil va turli tumandir. Unda pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar uchrab turadi. Bu esa o'qituvchidan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlikni, yuksak pedagogik kompetentlikni va ijodkorlikni talab etadi.

Shu bilan birga zamonaviy o'qituvchi buyuk ma'naviy fazilatlarga ega, insoniy fazilatlarni o'zida mo'jassamlashtirgan, yetuk kadr sifatida faoliyat yuritishi talab etiladi. Hozirgi davrning bu talabi - o'qituvchilarni yuksak pedagogik mahorat va texnika ko'nikmalariga ega, pedagoglik kompetentsiya sirlaridan voqif bo'lgan, umummadaniy fazilatlarga boy shaxs sifatida ta'lim-tarbiya jarayonining ijodkori bo'lishi lozimligini isbotlamoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Uralovna, J. F., & Mirzabekovna, S. A. (2022). How to develop critical thinking in children. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(5), 4-6.